
Shahrimizdagi tijorat banklari xodimlari tomonidan ming tupga yaqin mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida shahrimizdagi barcha mehnat jamoalari faol ishtirok etishmoqda. Jumladan, iqtisodiy sohalarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar ham tashabbus ko'rsatishdi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Farg'ona shahar "Ipak yo'li" mahalla fuqarolar yig'ini Fayz ko'chasidagi "Yormozor ixlos" fermer xo'jaligiga qarashli 1.5 gektar yer maydoni tijorat banklari tomonidan bog' yaratilmoqda.

Bugun shahar hokimining birinchi o'rinbosari Boburjon Mo'minov rahbarligida iqsodiy kompleks mutaxassislari va tijorat banklari boshliqlari hamda xodimlari tomonidan 500 tup mevali va 500 tupga yaqin manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-01 21:41:32